

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO'QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjaeva
29-avgust 2025-yil

ETIKA

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	220 000 – Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)
Ta'lim yo'nalishi:	60220500 - Falsafa

Qo‘qon – 2025

Fan/modul kodi ET1104		O‘quv yili 2025-2026	Semestr 1	ECTS -Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya soatlari (soat)		Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Etika	60		60	120
2.	I. Fanning mazmuni Etika fani axloqning kelib chiqishi, falsafiy mohiyati, shaxs yoki jamiyat odatlari, axloq normalari, axloq tuzilmasi, axloqqa doir didaktik-amaliy tajriba va falsafiy xulosalar, insonning ixtiyor erkinligi, etikaning asosiy kategoriya, tamoyil va me’yorlar ahamiyatiga oid ilmiy bilimlarni qamrab oladi. Fanni o’qitishdan maqsad - etika tafakkuriga doir vorisiylik xususiyatlari, ularning taraqqiyot bosqichlari, axloqning shaxs, fuqarolik jamiyati va davlat hayotida tutgan o‘mi, axloqiy anglash, axloqning tuzilmaviy jihatlar hamda ularning falsafiy mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish va falsafiy asoslab berishdan iborat. Fanning vazifasi - fanning predmeti va tadqiqot doirasi, falsafiy fan sifatidagi mohiyati, etika tarixi hamda axloqning milliylik va umumbashariylik xususiyatlarini tahlil etish, ularning inson hayotidagi hal qiluvchi mavqeini talabalar ongiga singdirish, jamiyatni modernizatsiya qilish jarayonida axloqning kategoriyalari va tamoyillariga yangicha yondoshuvni qaror toptirishdan iborat. University College London Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Falsafa fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalaridan biri bo’lgan University College London universitetining Aristotelning axloq falsafasi fanining o’quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 bo'yicha 9-o‘rinni egallagan bo’lib, ushbu sohada yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega. Dasturda quyidagi asosiy jaihatlar inobatga olingan: Nazariy va amaliy yondashuv uyg’unligi – University College London universitetining Axloq falsafasi kursida, fanning asosiy tushunchalari, g'oyalari, nazariyalari va usullarini, shuningdek, jamiyatning tabiati va evolyutsiyasi yo'nalishiga oid zamonaviy va zamonaviy nazariyalarni ko'rib chiqamiz. Falsafiy va axloqiy munozaralar shaxs va jamiyat, insoniyat jamiyati va falsafiy qarashlar o'rtasidagi murakkab munosabatlar nuqtai nazaridan tuzilgan. Xalqaro standartlarga muvofiqlik – dastur xalqaro ta’lim me’yorlari, xususan, ilmiy madaniyat normalari va qoidalarini, dunyoni siyosiy idrok etishning samarali texnologiyalarini, shuningdek, siyosiy voqealarni yoritishning o'ziga xos xususiyatlari, ichki va xalqaro siyosiy kun tartibini				

ekspert baholash usullari, siyosiy, iqtisodiy, ekologik va boshqa xavf va tahdidlarni aniqlash prinsiplari asosida boyitilgan.

Tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish – talabalar dunyodagi axborot oqimini siyosiy-tanqidiy idrok etish, mustaqil tahlil qilish, dalillarga tayangan holda xulosa chiqarishni o'rganadilar.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

I-MODUL. Axloqningning jamiyat hayotidagi o'rni

1-mavzu: Etika fanining predmeti, tadqiqot doirasi, maqsad va vazifasi

Axloqshunoslik axloqning kelib chiqishi va mohiyatini, kishilik jamiyatidagi axloqiy munosabatlarni o'rganadi. Odob — inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi. Xulq.

Axloq — jamiyat, zamon, ba'zan insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan umumbashariy ahamiyatga ega ijobiy xatti-harakatlar yig'indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi m a'naviy hodisa.

Axloqshunoslik va dinshunoslik. Axloqshunoslik va milliy g'oyalar falsafasi. Axloqshunoslik fanining ahamiyati va vazifalari. Axloqshunoslikning falsafiy fan sifatidagi mohiyati va o'ziga xosligi.

Axloqshunoslik oldida qator global muammolar

2-mavzu: Qadimgi dunyo va o'rta asrlarda axloq haqidagi qarashlar tarixi

Qadimgi Sharqdagi dastlabki axloqiy g'oyalar. Somir va Bobilon. Qadimgi Misr. Qadimgi Misrda odob-axloq masalalari.

Qadimgi Turon va Eronning e'tiqodiy yodgorliklari. «Avesto». Qadimgi Turonzamin va Eron zamindagi axloqiy tafakkur taraqqiyoti. «Xuastuanift». «Avesto»dan keyin, islomgacha bo'lgan davrda m intaqam izda eng keng tarqalgan, mohiyatan axloqiy majmua hisoblangan manba.

Hindi-Xitoy mintaqasidagi axloqiy ta'limotlar. Vedachilik, yo'ga, jaynchilik, buddhachilik, «Bxagavadgita» va «Artxashastra» hamda lokoyata oqimlari. Sidharta Gautama. Jaynchilik. Daochilik. Konfutsiychilik.

Qadimgi dunyoning mumtoz axloqshunosligi.

3-mavzu: O'rta asrlar mutafakkirlarining axloqiy ta'limotlari

Diniy-hadisiy yo'nalish axloqshunosligi. Qur'oni karim. Hadisi sharif. Muhammad alayhissalomning hayoti va faoliyatlaridan so'z yurituvchi, u kishining diniy-axloqiy ko'rsatmalaridan tashkil topgan hadislar.

Mashshoiyyunlik yo'nalishi axloqshunosligi. Abu Nasr al-Forobiy. Abu Bakr ar-Roziy (865— 925). Abu Ali Ibn Sino. Mutafakkir Ibn Rushd.

Tasavvufiy axloqiy ta'limotlar. Robiya al-Adaviya. Hujjat ul-islom Imom G'azzoliy. Abu Said ibn Abul Xayr Mehaniy. Jaloliddin Rumi (1207—1273). Shayx Aziziddin Nasafiy.

4-mavzu: Temur va temuriylar davri mutafakkirlarining axloqiy qarashlari

Temuriylar davri mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. Alisher Navoiy (1441 — 1501). «Mahbub ul-qulub»da komil inson masalasi. Husayn Voiz Koshifiy (1440—1505). Jaloliddin Davoniy (1427-1502).

Mashhur pandnomalarning axloqiy mohiyati. «Kalila va Dimna». «Qobusnoma». «Guliston» asari. «Qutadgʻu bilig».

Oʻrta asrlar Yevropa axloqshunosligi.

5-mavzu: Yangi va eng yangi davr axloqshunosligi

Yevropa maʼrifatparvarlarining axloqiy qarashlari. Fransuz faylasufi Rene (Karteziy) Dekart. Niderlandiyalik faylasuf Benedikt (Barux) Spinoza. Tomas Hobbs. Jon Lokk (1632-1704). Jan Jak Russo.

Olmon mumtoz axloq falsafasi. Immanuyel Kant (1724— 1804). Yohann Gotlib Fixte. Fridrix Vilhelm Yozef Shelling. Georg Vilhelm Fridrix Hegel. Lyudvix Feyerbax.

Noratsional axloqiy taʼlimotlar. Fransuz faylasufi Ogyust Kont. Syoren Aabe Kirkegaard. Artur Shopenhauer.

Markscha yoʻnalish va uning tanqidiy tahlili. Karl Haynrix Marks (1818—1883) va Fridrix Engels (1820—1895).

Rus mumtoz axloqshunosligi. L.Tolstoy, F. Dostoyevskiy, I. Turgenev, A.Ostrovskiy, N. Chernishevskiy, V.Belinskiy.

6-mavzu: XIX-XX asr mumtoz axloqshunosligi

Hayot falsafasi axloqshunosligi. Buyuk olmon faylasufi Fridrix Nitshe. Nitshe axloqiy taʼlimoti.

Ruhiy tahlil mutafakkirlarining axloqiy taʼlimotlari. Avstriyalik olim Zigmund Froyd - Zigismund Shlomo (1856-1939). Erix Fromm (1900-1980).

Ekzistensiyachilik axloq falsafasi. Ekzistensiyachilik. Olmon faylasufi Karl Yaspers. Jan-Pol Sartr. Gʻayrizoʻravnlik axloqiy taʼlimoti. XIX asr mutafakkiri amerikalik faylasuf-axloqshunos Henri Deyvid Toro (1817-1862). Lev Tolstoy (1828-1910), Mohandis Karamchand Gandi (1869—1948).

Hayotga ehtirom va yangi tasavvufchilik axloqshunosligi. Albert Shvayser. Yangi tasavvufchilik yoʻnalishi. Muhammad Zohid Qutqu (1897—1980). Mahmud Asʼad Joʻshon.

7-mavzu: XIX oxiri va XX asrda mutafakkir-olimlarning axloqiy qarashlari

Turkiston maʼrifatchiligining oʻziga xos xususiyatlari. Ahmad Donish. Berdaq (1827—1900). Furqat (1858—1909), Muqimiy (1859 1903), Dilshod (1800-1906) . Atoqli jadid mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. Abay. Anbar otin. Abdulla Avloniy. Abdurauf Fitrat. Olimat ul-Banotning Sankt-Peterburgda 1898 va 1899-yillarda ikki marta nashr etilgan «Muosharat odobi» («Turmush odobi») asari.

Jadid matbuotida axloqiy tarbiya muammolari. «Taraqqiy», «Sadoi Turkiston», «Ulug' Turkiston», «Turon» gazetalari. Munavvar qori Abdurashidxonovning «Xurshid» gazetasi.

Keyingi davrlar o'zbek axloqshunosligi. Sho'rolar davridagi axloqshunoslik fani. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng axloqshunoslikda tafakkur erkinligi.

II-MODUL. Axloq va uning tarkibiy qismlari

8-mavzu: Axloqshunoslikning asosiy tushunchalari

Axloqshunoslik tushunchalari haqida umumiy ma'lumot. Axloqshunoslikdagi inson xatti-harakatining ikki qutbi — axloqiylik bilan axloqsizlik holatlari.

Muhabbat va nafrat. Muhabbat bosh mezoniy tushuncha sifatida. Muhabbatning obyekti doimo go'zallik, manfaatsiz go'zallik. Muhabbat ham, axloqshunoslikdagi ko'pgina tushunchalardek, «juftlik» xususiyatiga ega, uning ziddi — nafrat.

Ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, adolat, shafqat. Ezgulik - insonga eng kuchli ma'naviy lazzat bag'ishlaydigan, uni ijtimoiy shaxsga aylantirib, haqiqiy baxtga olib boruvchi fazilat. Burch, vijdon, nomus, qadr-qimmat.

Ideal, hayotning ma'nosi, baxt, o'lim va o'lmaslik, ijtimoiy-axloqiy ideal bilan diniy ideal, yashashdan maqsad.

9-mavzu: Axloqiy tamoyillar, me'yorlar va muomala madaniyati

Axloqiy tamoyil, Umumjahoniy dinlar, Insonparvarlik, insoniy huquqlarini ta'minlash uchun kurashish — insonparvarlikning asosiy vazifasi. Erkparvarlik, erkparvar shaxslar muayyan davrning qahramonlari. Vatanparvarlik – muayyan zamonga, muayyan vatandosh-insonlarga bo'lgan muhabbatga asoslangan axloqiy xatti-harakatlar jamuljamidir.

Millatparvarlik, Asl millatparvar — milliy o'zligini anglab yetgan inson. Fidoyilik, Ziyolilik jadidchilik harakati bilan biiga yuzaga keldi, Mehnatsevarlik – u mehnat jarayonida shaxsning o'z-o'zini namoyish etishiga, o'zligini ro'yobga chiqarishiga, o'zgalar bilan munosabatlar o'rnatishiga imkon yaratuvchi axloqiy fazilatdir.

Tinchlikparvarlik, Jo'mardlik, O'zbekchilik, Mehmondo'stlik.

10-mavzu: Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov

Axloq — oliy mavjudotga ato etilgan oliy ne'mat. Fromm obro'parvarlik axloqinining ikki asosi.

Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov. Erkinlikning o'zi. Ixtiyor - erkinlik, iroda - zaruriyat. Ixtiyor erkinligi tanlanayotgan ikki narsa oralig'idagi flkrlash mobaynidagina voqe bo'ladigan hodisa.

Dastlabki axloqiy qonun-qoidalar va axloqiy ravnaq muammosi. Inson axloqiy hayotining asosi. Ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, ixtiyor erkinligi, tanlov

11-mavzu: Oila, fuqarolik jamiyati va davlatning axloqiy asoslari

Oilaning ilk axloqiy maskan sifatidagi o'zni. Nikoh va muhabbat. Oilaviy muhit. Oilaning mustahkam bo'lishi, oila a'zolarining axloqiylik darajasi. Yangicha zamonaviy oila. Oilaviy mulk, farzand tarbiyasi va oilaning tarqalishi.

Fuqarolik jamiyatining axloqiy asoslari. Fuqarolik jamiyati mohiyatan oila bilan davlat o'rtasidagi daraja. Fuqarolik jamiyati turli tabaqalardan tashkil topadi. «Kuchli davlatdan — kuchli jamiyat sari» konsepsiyasi.

Davlatning axloqiy mohiyati. Demokratik tamoyillarni amalga oshirish jarayonlari. Davlat suvereniteti. Millat suvereniteti. Suveren davlatning asosiy vazifasi - inson huquqlari, shaxs nomusi va qadr-qimmatini himoya qilish. Demokratik davlatning asosi

12-mavzu: Etiket tushunchasi va kasbiy odobning axloqiy madaniyat bilan uyg'unligi

Madaniyatning turlari. Axloqiy madaniyat. Axloqiy madaniyatning eng muhim unsurlaridan biri - muomala odobi. Muomala odobida tilning sofligi masalasi. Muomala odobida «siz» va «sen»ning o'z o'rnida qo'llanilishi. Axloqiy komillikka erishish

Etiket - axloqiy madaniyat yaqqol ko'zga tashlanadigan munosabatlar ko'rinishidan biri. Etiketning zamonaviy ko'rinishlari. Milliy mentalitetda marosimlar etiketi, odob bilan go'zallik.

Kasbiy odob. Muallimlik odobi, huquq-tartibot xodimlari odobi, muhandis odobi. Rahbarlikning axloqiy jihatlari, Insonning axloqiy hayoti. Axloqiy tarbiya inson farzandini takomilga, komillikka yetkazish yo'llaridan biri.

13-mavzu: Shaxs axloqiy tarbiyasi

Halollik va rostgo'ylik. Halollik vijdon, adolat va burch kabi axloqshunoslik mezoniy tushunchalari bilan bog'liq. rostgo'ylik — insonning keyinchalik kasb etgan — o'z ongiga, ruhiga singdirgan, ijtimoiy-hayotiy, davriy-tajribaviy xususiyat emas, balki uning mohiyatida berilgan fazilat.

Hayolilik va insoflilik. Hayolilik kishining ma'naviyatli, ma'rifatli, nomusli, ochiq ko'ngilli ekanini anglatadi. Insoflilik halollik kabi vijdon tushunchasi bilan bog'liq.

Xushfe'llik, shirinsuxanlik, kamtarinlik, bosiqlik. Har bir jamiyat darajasi ma'lum ma'noda undagi fuqarolar muomala madaniyatining yuksakligi bilan belgilanadi.

14-mavzu: San'atning shaxs axloqiy tarbiyasiga ta'siri

Axloqning boshqa ijtimoiy-ma'naviy hodisalar bilan o'zaro aloqalari. Axloq va san'at. Axloq va din. Axloq va huquq. Axloq va iqtisodiyot. Iqtisodiyotni axloqlashtirish. Axloq va siyosat. Axloq va fan. Axloqning boshqa ma'naviy hodisalar bilan aloqalari

San'at haqida umumiy tushuncha. Ruhning vazifasi — vujudni boshqarish. «Qorin falsafasi». San'atni mustahkamlash. Axloq - san'at tizimida

eng salmoqli o'rinni egallovchi omil va undagi boshqa sohalar bilan mustahkam aloqa. Axloqning ma'naviyat va san'at tizimidagi birlashtiruvchilik xususiyati.

15-mavzu: Axloqshunoslikning global muammolari

Axloqiy muhit. Inson bilan uning tafakkuri. Axloqshunoslik fanining o'rni. Insoniylik va insonparvarlikning ko'rinishi. Ekologik axloqshunoslik, tabobat borasidagi so'nggi tadqiqotlar, Biologik axloqshunoslikning muammosi. Biologik axloqshunoslik.

O'lim, axloqiy nuqtayi nazardan eng ulkan yovuzlik. Inson hayoti eng oliy qadriyat. Islomning uch dasturi. Termiziy va boshqa hadislar.

Demokratik jamiyatlarda sudlar. Yer yuzidagi globallashib borayotgan axloqiy muammolar. Axloqiy insondan, axloqiy insoniyatga o'tish

III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- 1-mavzu: Etika fanining maqsad va vazifalari
- 2-mavzu: Qadimgi dunyo va o'rta asrlarda axloq haqidagi qarashlar tarixi
- 3-mavzu: O'rta asrlarda Sharq axloqshunosligining asosiy yo'nalishlari
- 4-mavzu: Temur va temuriylar davri mutafakkirlarining axloqiy qarashlari
- 5-mavzu: Yangi va eng yangi davr axloqshunosligi
- 6-mavzu. XIX-XX asr mumtoz axloqshunosligi
- 7-mavzu: XIX oxiri va XX asrda mutafakkir-olimlarning axloqiy qarashlari
- 8-mavzu: Axloqshunoslikning asosiy tushunchalari
- 9-mavzu: Axloqiy tamoyillar, me'yorlar va muomala madaniyati
- 10-mavzu: Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov
- 11-mavzu: Nikoh, oila va davlatning axloqiy asoslari
- 12-mavzu: Etiket tushunchasi va kasbiy odobning axloqiy madaniyat bilan uyg'unligi
- 13-mavzu: Shaxs axloqiy tarbiyasi
- 14-mavzu: San'atning shaxs axloqiy tarbiyasiga ta'siri
- 15-mavzu: Etikaning zamonaviy muammolari

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Axloqshunoslikning falsafiy fan sifatidagi mohiyati
2. Axloqshunoslikning boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqasi
3. Qadimgi Sharqdagi dastlabki axloqiy g'oyalari
4. Qadimgi Turon va Eronning e'tiqodiy yodgorliklari
5. Qadimgi dunyoning mumtoz axloqshunosligi
6. Diniy — hadisiy yo'nalish axloqshunosligi mohiyati
7. Temuriylar davri mutafakkirlarining axloqiy qarashlari
8. Yevropa ma'rifatparvarlarining axloqiy qarashlari
9. Hayot falsafasi axloqshunosligi
10. Ruhiy tahlil mutafakkirlarining axloqiy ta'limotlari
11. Hayotga ehtirom va yangi tasavvufchilik axloqshunosligi asoslari

	12. Atoqli jadid mutafakkirlarining axloqiy qarashlari 13. Keyingi davrlar o'zbek axloqshunosligi 14. Dastlabki axloqiy qonun-qoidalar va axloqiy ravnaq muammosi 15. Axloqning tuzilmasi va uning asosiy xususiyatlari 16. Axloqning asosiy vazifalari 17. Axloqning ma'naviyat tizimidagi o'rni 18. Axloqning boshqa ijtimoiy-ma'naviy hodisalar bilan o'zaro aloqalari 19. Axloqshunoslikning asosiy tushunchalari 20. Ideal hayotning ma'nosi, o'lim va o'lmaslik tushunchalari 21. Baxt va baxtlilik 22. Jo'mardlik, o'zbekchilik, mehmondo'stlik muammolari 23. Axloqiy me'yorlar va ularning amaliy ahamiyati 24. Axloqiy me'yorlari 25. Oilaning ilk axloqiy maskan sifatidagi o'rni 26. Davlatning axloqiy mohiyati 27. Kasbiy odob 28. Fuqarolik jamiyatining axloqiy asoslari 29. Axloqiy tarbiya hamda uning yo'llari va vositalari 30. Axloqshunoslikning global muammolari
3.	V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetentsiyalari Talaba bilishi kerak: - Etika fanining asosiy maqsadi va uni o'qitilishining nazariy-amaliy ahamiyati, etikani taraqqiyot bosqichlari, falsafa tarixi, ontologiya, gnoseologiya va ong falsafasi, ma'naviyatshunoslik kabi fanlar bilan aloqadorligi, etika fanining predmeti va ahamiyati, axloq tushunchasi: mohiyati, mazmuni, tuzilmasi, namoyon bo'lish shakllari, axloqning vujudga kelishi (genezisi) va dastlabki rivojlanish davri kabi tushunchalar haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim) - Etikaning metod, qonun va kategoriyalari, uning asosiy ko'rinishlari, etika faniga kirish, axloqning mohiyati, tuzilishi va funksiyalari, islom dini va ta'limoti, hayolilik va insoflilik axloqning kelib chiqishi, axloqning boshqa ijtimoiy-ma'naviy hodisalar bilan o'zaro aloqalar, axloqiy tamoyillar, axloqiy me'yorlar va ularning amaliy ahamiyati, axloqiy tarbiya hamda uning yo'llari va vositalari, axloqiy tarbiya va estetik tarbiya haqida bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma) - yoshlarning dunyoqarashi ilmiy salohiyatini shakllantirishda amaliy faoliyat olib bora olishi, yoshlarni axloqiy qadryatlarga xurmat hissi asosida tarbiyalay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. (malaka)
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: - ma'ruzalar; - interfaol keys-stadilar; - seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); - guruhlarda ishlash; - taqdimotlarni qilish;

	• individual loyihalar; • jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirishi, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olishi, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritishi va joriy, oraliq, yakuniy nazorat shakllarida va mustaqil ta’lim uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarishi kerak.
6.	Asosiy adabiyotlar: 1. Muhammadjonova L., Abdulla Sher, Shadimetova G. Axloq falsafasi. Darslik. — Toshkent.: Universitet. O‘zMU, 2023. -247-b. 2. Muhammadjonova L. Amaliy etika va estetika. O‘quv qo‘llanma. — T.: Mumtoz so‘z, 2022.-269-b. 3. Shermuxammedova N. Falsafaga kirish. Toshkent, Innovatsiya-Ziyo. 2021. 4. Tulenov J, Tulenova K, Tulenova G. Falsafa. Toshkent, Ziyo, 2022. 5. Yuldasheva M. Falsafa, Namangan, Usmon Nosir media. 2025. 6. https://www.ucl.ac.uk/module-catalogue/modules/introduction-to-moral-philosophy-PHIL0006 7. https://www.ucl.ac.uk/arts-humanities/philosophy/current-students/ba-modules Qo‘shimcha adabiyotlar: 1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2024 yil. 2. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1 jild. T.:O‘zbekiston, 2018 yil. 137-151; 461-496; 504-538 betlar. 3. Shavkat Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: 2018 y. 136-146; 176-221 betlar. 4. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –Toshkent.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. 2010. -328-b. 5. Po‘latova D. Axloqshunoslik. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent.: “Primier print”. 2011. 116-b. 6. Nazarov Q. Falsafa asoslari. – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2012. 7. Shermuxammedova N. Inson falsafasi. Darslik Toshkent, Innovatsiya-Ziyo. 2020 8. Tulyaev A. I. Virtual olamdagi axloqiy muammolar va ularni oldini olish zaruriyati. - T.: Mumtoz so‘z, 2022. 9. Muhammedjanova L.A., Ortiqova D.O., Abidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. / Darslik. - T.: Adabiyot uchqunlari, 2018. 10. Muhammedjanova L.A. Jamiyat, axloq va qadriyatlar falsafasi. Darslik. - T.: Olam, 2023 11. Агзамова Н. Этика. Учебное пособие. - Т.: Низами, 2018.
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va

	universitet kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas’ul: Z.Xamraqulov – Qo‘qon DU, Falsafa va dinshunoslik kafedrası dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
9.	Taqrizchilar: A.Qambarov – FarDU professori, falsafa fanlari doktori (DSc) D.Normatova – FarDU dotsenti, falsafa fanlari nomzodi